

O'ZBEK MILLIY XALQ CHOLG'ULARIDAN DUTOR CHOLG'USI HAQIDA QONUN-QOIDALAR HAMDA DUTOR CHALISHNING USLUBIY BELGILARI

Shodiyeva Shaxina

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika , psixologiya va
san'atshunoslik fakulteti "Musika ta'limi va madaniyat" kafedrası
"Musika ta'limi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Shaxinashodiyeva617@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolaning qisqacha mazmuni o'zbek milliy cholg'ulari bilan yaqindan tanishish va dutor zarblari, ularning yozilish belgilari, applikatura, barmoqlar holati (pozitsiya), ijro bezaklari (melizm)lar haqida ham qisqacha ma'lumotlar kiritiladi. Shuningdek, uchtovushliklar va ularning aylanmalari, mashqlar va etyudlar, gammalar haqida yo'llanmalar berishga harakat qildik. Darslikdan badiiy asarlar ustida ishlashga oid uslubiy ko'rsatmalar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: dutor, prima, sekunda, alt, pastanovka, applikatura , zarb , pozitsiya, melizm , partiya, orkestr va ansanbl .

Аннотация: Краткое содержание данной статьи представляет собой краткое знакомство с узбекскими музыкальными инструментами и включает краткие сведения о дутарных ударах, символах написания, аппликатуре, положении (позиции) пальцев, а также мы добавим частично о исполнительских украшениях (мелизме). Мы постарались дать направление о трезвучиях и их обращениях, упражнениях и этюдах, гаммах. В статье также включается методика работы над художественными произведениями.

Ключевые слова: дутор, прима, секунда, альт, пастановка, аппликатура, удар, позиция, мелизм, партия, оркестр и ансамбль.

O'zbek milliy xalq cholg'ulari rivojlanishiga o'zining eng katta xizmatini ko'rsatgan kompozitorlar va professional desak ham bo'ladi , bu inson A.Petrosiyansdir . Hozirgi kunda milliy cholg'ular uchun juda katta innovatsion imkoniyatlar yaratilmoqda . Har bir cholg'u o'zining oilasiga ega albatta, dutor cholg'usi ham dutorlar oilasida olti xil dutor turiga ega. Bugunga kelib, dutor sinflarida shulardan to'rt xil ko'rinishdagi, ya'ni milliy dutor, dutor alt, dutor sekunda va dutor prima kabilarni o'rganish maqsadga muvofiqligi ma'lum bo'ldi.

Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy, "Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari" nomli risolasi (XVI bobi) da uchratamiz. XVI – XVII asrlarda "Dutori" taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutori, mashhadlik Mirquliy

Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Dutor so‘zi fors-tojikcha bo‘lib, du – “ikki”, tor – cholg‘u asbobining chertib tebratiladigan maxsus ipi” so‘zlarining yaxlitlanishidan hosil bo‘lgan¹.

Milliy dator - qadimgi diatonik dator pardalari ichak iplar bilan boylab ajratilgan, quloqlari yog‘ochdan ishlangan. Tut, yong‘oq, o‘rik va boshqa daraxt yog‘ochlaridan yasaladi. Sozlanishi yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Kichik oktava re, lya yoki re, sol notalariga sozlanadi. Ichak yoki ipakdan eshib yasalgan torlar taqilib, quruq, mo‘tadil joyda saqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirda bu dutorda milliy mumtoz asarlardan tashqari jahon kompozitorlari va bastakorlari tomonidan yaratilayotgan asarlarni ham ijro etish mumkin, chunki xas pardalar bilan xromatiklashtirilgan.

Dutor alt - bu dator A.t.Petrosyans tomonidan qayta ishlangan bo‘lib, xromatik tizimdagi pardalari yog‘och yoki ebonitdan o‘yib o‘rnatilgan, Qopqoglining ustidagi yarim qopqoq uni tirnolib teshilishidan saqtaydi. Dutor alt yozilishiga qanganda bir oktava past eshitiladi. Lya, mi yoki lya, re birinchi oktava notalariga sozlanadi. Torlari 0,6 yoki 0,5 mm yo‘g‘onlikdagi sintetik kaprondan bo‘ladi. Quruq, mo‘tadil iqlimli xonalarda saqlash maqsadga muvofiqdir. Bu asbobda o‘zbek mumtoz musiqalar, kompozitorlar va bastakorlar tomonidan yaratilayotgan asarlar, tojik, qitg‘iz, turkman va boshqa xalqlar asarlari ham ijro etiladi. Mazkur datorlar orkestr va ansambllarda ijro qilish uchun mo‘ljallangan. Dutor sekunda - bu cholg‘u ham A.I.Petrosyans tomonidan qayta ishlangan bo‘lib, taxminan Xorazm dutori ko‘rinishi va o‘lchovi bilan o‘xshash². Uning jussasi kichik o‘quvchilarga (musiqi maktablarida) kvarta tushurib, alt sozi bilan o‘rgatilsa, juda qulay.

Dutor-sekunda - orkestr va dator ansambllarida ham qo‘llash mumkin. Sozlanishi re, sol birinchi oktava, milliy dutordan ikki oktava past eshitiladi.

Dutor prima - bu cholg‘u ham A.I.Petrosyans va U.Zufarovlar tomonidan Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand baxshi-shoirlarining jo‘rnavez cholg‘usi do‘mbiraga o‘xshagan holda qayta ishlangan bo‘lib, xromatik pardalar bilan ajratilgan. Birinchi oktava lya, miga sozlanadi. Yozilishicha eshitiladi. Dutor primada dunyo kompozitorlari va xalq musiqi asarlarini ijro etish mumkin. Dutor primaning - kosasi kichik bo‘lganligidan uni chalganda o‘ng oyoqni, chap oyoq ustiga qo‘yib o‘tirib, qulaylik yaratiladi. O‘qituvchi darsni dator asbobining tarixidan boshlab, o‘quvchi har bir harakatni o‘z o‘rnida ishlatishi, o‘tirish holati, o‘ng va chap qo‘l harakati, uni chalishni o‘rgatishga o‘tganida ularning aniq vazifalari, chap qo‘l barmoqlarini pardalar ustida to‘g‘ri ushlash kabi ma‘lumotlarni M.A.Asilov, F.N.Vasilev darsligidan va boshlang‘ich bilimlar asosida olib boradi. Dutor sozida ijro uslublari juda qadimdan rivojlanib kelgan. Bunda o‘ng qo‘lning harakatini quyidagicha izohlash mumkin:

¹ Jumayev S. Soz va sozgarlik, 2018.

² S. Jumayev . “Soz va sozgarlik” 2018 – yil

1. Bilak zarbi.
2. Ko'rsatkich barmoq zarbi (tremolo) (ko'rsatkich va bosh barmoq termasi).(ko'rsatkich va bosh barmoq bilan chimdib chalish (pitsisikato)).

Dutor cholg'usining yasalihi

Dutor tut, o'rik, yong'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutorning qorni o'nga yaqin yupqa taxtakachni egib, bir-biriga yopishtirilib yasaladi. Buning ustidan qopqoq yopiladi va tayyor bo'lgan qorin dastaga ulanadi. Tong'ir yoki tor ilgak datorning ikki simini ko'tarib turadi. Dutorning dastasi ingichka uzun bo'ladi. Boshqa torli asboblarda odatda metal pardalar bo'lsa, dutorda dastasiga o'ralgan 15 ga yaqin ipak parda bo'ladi. Zamonaviy datorlarning pardalari ba'zan yog'och yoki suyakdan yasaladi. XX asrning 30-yillarning birinchi yarmida boshida musiqa cholg'ulari yasash bo'yicha nom qozongan Usta Usmon Zufarov (1892-1981) dator va g'ijjklarning turdosh oilasini yaratish bo'yicha o'z takliflarini berdi va O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari milliy ansamblining rahbari, akademik Yunus Rajabiy usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dator bas (katta dator) turini yaratdi³.

Dutor dastasi suyak, sadaf bilan bezaladi. Dutor torlari avvaliga ichakdan, keyin ipakdan tayyorlanar edi. Zamonaviy dator torlari neylondan qilinadi. Milliy datorning pardalari hozirgi amaliyot tadqiqotlariga ko'ra xromatiklashtirilgan. Unga xas parda qo'shish natijasida, oltinchi parda 6-7-qilib bo'lingan. O'n ikkinchisi 13-14-qilib bo'lingan va o'n beshinchi pardadan so'ng 18-19-pardaga xas parda yopishtirilib, xromatiklashtirilgan. Ayni paytda kompozitorlar ham milliy datorlar uchun asarlar yozishmoqda. Bunday asarlar nafaqat kompazitorlar tomonidan yozilmoqda balki, yozilgan asarlar ijodkorlar tomonidan qayta ishlanmoqda. Qayta ishlash vaqtida ko'p yangilash emas balki kirish va rivojlov qismlari qo'shilib asarlar yanada mukammallashtirilmoqda.

Dutor sozlanishi

1. Milliy dutorda re, lya, re, sol (katta oktava) qo'shtor sozi.
2. Dutor altda lya, mi, lya, re (kichik oktava).
3. Dutor prima lya, mi, lya, re (birinchi oktava).

Dutorda ijro etiladigan milliy kuylar

Dutor uchun xalq orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bular safiga "To'rg'ay", "Farg'onacha", "Tanovar", "Munojot", "Rohat", "Jigarpora", "Dilxiroj", "Chertmak", "Shafoat", "Suvora", "Qo'shtor" kuylarini kiritish mumkin. Nafaqat bu asarlar boshqa shu kabi xalq kuylarimiz ham kiradi. Bulardan yana bir misolar: XX asrda Andijon datorchilik maktabi namoyandalaridan Dorip datorchi, M.Najmiddinov, O.Rustamov,

³ Sh.Rahmatullayev "Dutor taronalari" 2000 - yil

K.Jabborov, Farg‘onada Qo‘zixon Madrahimov ijrosida “Nolish”, “Cho‘pon”, “Andijon Kurdi”, “Andijon sayqali”, “Tuya bo‘zloq”, “Qo‘shyor”, Toshkent maktabi yirik vakillaridan Solixon Hoji, A.Vahobov, F.Sodiqov, M.Yunusov, T.Alimatov, S.Yo‘ldoshevlar talqinida “Sharob 1,2”, “Shafoat 1, 2, 3, “Toshkent sayqali”, “Toshkent Kurdi”, “Rajabiy 1, 2”, “Kurash”, “Dutor Bayoti”, “Dutor Navosi”; Samarqand maktabi ustozlaridan Hoji Abdulaziz, Qori Siroj Yusupovlar ijrosida “Guluzorim”, “Bebokcha”, “Bozurgoniy”, “Gullar vodiysi”; Xorazm maktabi vakillaridan N.Boltaev, Y.Jabborovlar ijrosida “Aliqambar”, “Saqli Navo” singari mumtoz kuylar ijro etilgan. 1970-yillardan yakka dutorda Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llari ham ijro etila boshlandi. O‘zbek bastakorlaridan N. Hasanov “Gilos”, F.Sodiqov “Dutorim”, S.Yo‘ldoshev “Dil kuylasin”, “Tog‘ go‘zali”, O.Qosimov “Yangra sozim” kabi asarlarni dutor uchun yaratganlar; “Jigar pora” (majoziy – jigarband, farzand) – ommaviylashgan o‘zbek mumtoz cholg‘u kuyi ham dutor yoki tanburda ijro etiladi⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O‘zbek xalq cholg‘usi dutor haqida ma’lumot
- 2) S. Jumayev . “Soz va sozgarlik” 2018 – yil
- 3) Sh . Rahmatullayev “Dutor taronalari” 2000 - yil
- 4) O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., 2000.

⁴ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., 2000.